



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova – SamISI, “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrası dotsenti v.b., PhD

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotasiya. Maqolada umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida innovatsiyalarni joriy etish korxonalar daromadligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslangan. Innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: umumiy ovqatlanish korxonasi, xizmatlar sohasi, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik, xizmat ko‘rsatish sifati, innovatsiyani baholash, raqobatbardoshlik, innovatsion infratuzilma, iqtisodiy tahlil.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida aholi turmush sifatini yuksaltirish, munosib ish o‘rinlarini yaratish, iste‘mol mahsulotlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasini sifat jihatidan rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizning boy madaniy merosi, jumladan, milliy pazandachilik san‘ati va tarixiy taom tayyorlash an‘analarini asrab-avaylagan holda zamonaviy xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini shakllantirish, umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifati va oshpazlik mahoratini oshirish, professional ta‘lim va sertifikatlash tizimini takomillashtirish, tun-u kun faoliyat yurituvchi ovqatlanish xizmatlarini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rag‘batlantirish, tashkiliy-huquqiy infratuzilmani mustahkamlash hamda aholiga ko‘rsatilayotgan ovqatlanish xizmatlari ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda innovatsion boshqaruv mexanizmlaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, umumiy ovqatlanish korxonalarining innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish omillarini aniqlash, xizmat turlarini diversifikatsiyalash asosida raqobatbardoshlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash, shuningdek, innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida prognozlash ishlarini amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish nafaqat xizmatlar sifatini yaxshilash, balki resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va mijozlar ehtiyojlarini yanada to‘liq qondirish imkonini bermoqda. Shu sababli, umumiy ovqatlanish sohasida innovatsion boshqaruvning samaradorligini baholash va uni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari faoliyatida innovatsiyalarning tutgan o‘rni, innovatsion faoliyatning iqtisodiy mohiyati hamda uning samaradorligini oshirish muammolari, shuningdek, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini ta‘minlash masalalari ko‘plab xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, innovatsiyalar nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga oid fundamental yondashuvlar Y.Shumpeter, A.Smit, P.Samuelson, Braun, Joachim, Afsana, Kaosar, Fresco, Louise O.D.Bella, E.M.V.M.Rutgayzer¹ kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. MDH mamlakatlari olimlaridan L.K.Pavlov, L.P.Goncharenko, A.A.Safaryan² va boshqalar hamda mahalliy olimlardan M.Pardayev, M.E.Po‘latov, M.M.Muxammedov, J.R.Zaynalov, K.J.Mirzayev, B.A.Abdukarimov, D.X.Aslanova, I.S.Tuxliyev, J.I.Isroilov, M.T.Alimova va S.N.Toshnazarov³larning ilmiy ishlari ushbu yo‘nalishdagi muhim nazariy va

¹ Y. Shumpeter/Theorie der Wirtschaftlichen Entwicklung,1912 Social Innovation in Asia: Trends and Characteristics in China, Korea, India, Japan and Thailand, 2017, pp. 249-274 (26 pages, Braun, Joachim, Afsana, Kaosar, Fresco, Louise O. Science and Innovations for Food Systems Transformation Cham, 2023, 948p., Niranjana D, Chivate, Anuradha N Chivate, Cutting-Edge Developments in Microemulsion Technology: Diverse Applications, Formulation Innovations, and Future Horizons, June, 2024.

² Сафарян А. А. Инновации в сфере обслуживания [Электронный ресурс] : учебное пособие Пермь,2021

Л. П. Гончаренко, Ю. А. Артунов. Инновационная политика –М.: КНОРУС, 2009. - 352.; Л.К. Павлов. «Инвестиции инновационного типа» Журнал «Экономист» Москва № 7 2008 стр. 34-37.; Е.В. Силкина Белорусский государственный университет, Минск [Материалы международного форума «Инновационные технологии и системы»: — Минск: ГУ «БелИСА», 2006. — 156

³ Пардаев М.К., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.К. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарканд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавкиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли.

amaliy tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda xizmat ko‘rsatish sohasi va savdo korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyatning sinergetik samaradorligini baholash, innovatsiyalarni joriy etish natijalarini kompleks tahlil qilish, innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda innovatsion rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zaruratini belgilab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga oid nazariy va amaliy yondashuvlarni o‘rganishda tizimli tahlil, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, guruhlash, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etishning natijadorligini baholash maqsadida SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda butun dunyoda innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘shishning asosiy omiliga aylanmoqda. Mamlakatning innovatsion rivojlanishi zamonaviy jamiyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o‘zgarishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurutayotgan korxonalarning faqatgina 23,2foizi 2021-2023-yillar davomida mahsulotga doir innovatsiyalarni va 14,4foizi jarayonga doir innovatsiyalarni qo‘llagan. Biroq, ushbu firmalarning faqatgina 5foizi innovatsiya kiritish maqsadlari uchun o‘rtacha 1 270 000.0 so‘mdan ziyod mablag‘ sarflagan. 2021-2023-yillarda olib borilgan kuzatishlar natijasida korxonalarning 10foizi tashqi ilg‘or bo‘limlarni o‘zlashtirgan, 13foizi ichki imkoniyatlarni qo‘llagan hamda 7foizi innovatsiyalarni amalga oshirish uchun ausorsingdan foydalangan¹.

Innovatsiyalar 3 turga bo‘linadi. Bular texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalardir. 2023- yilda jami joriy qilingan innovatsiyalar 3792 tani tashkil etib, shundan 3409 tasi texnologik innovatsiyalar, 113 tasi marketing va 270 tasi tashkiliy innovatsiyalardir. Innovatsion faoliyat – g‘oyalar transformatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni bozor uchun joriy etish bilan hamohang bo‘lgan faoliyat hisoblanadi.

Shu o‘rinda, umumiy ovqatlanish korxonalarining innovatsion faoliyatini hamda umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish amaliyoti, innovatsiyalarni boshqarish mexanizmlari, innovatsion faoliyat yo‘nalishlari hamda ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan umumiy ovqatlanish korxonalari o‘rtasida so‘rovnoma tadqiqoti o‘tkazildi.

Mazkur so‘rovnomada viloyatning turli hududlarida joylashgan 112 ta umumiy ovqatlanish korxonasi ishtirok etdi. So‘rovnoma natijalari asosida korxonalarning innovatsion faollik darajasi, innovatsiyalarni joriy etishdagi mavjud muammolar va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

1-jadval

Samarqand viloyatida joylashgan umumiy ovqatlanish korxonalari o‘rtasida olib borilgan so‘rovnoma natijalari

№	Hududlar	Umumiy korxonalar soni	Innovatsiya kiritgan korxonalar soni	Innovatsiya kiritmagan korxonalar soni
1	Shahar markazlarida	41	39	2
2	Tuman markazlarida	50	38	12
3	Chekka hududlarda	21	3	18
Jami		112	80	32

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki yangi innovatsiyalar olib kirish darajasining katta qismi shahar markazlariga to‘g‘ri kelsa eng past ko‘rsatkich tuman markazlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Innovatsiya xarajatni amalga oshirgan 80 ta korxonaning innovatsiya miqdori hamda ularning samaradorligi natijalari umumlashtirildi (2-jadval).

¹ <https://review.uz/oz/odp>

So‘rovnoma olib borilgan 80 ta korxonaning innovatsiya natijalari statistikasi

Kiritilgan innovatsiyaga xarajatlar	Kiritilgan innovatsiya natijasida daromadning qo‘shimcha o‘sishi				
	10% gacha	10-25 foizgacha	25-50 foizgacha	50-100 foizgacha	100 foizdan yuqori
50 mln gacha	5	-	7	-	-
50 mlndan 100 mln gacha	1	8	7	1	3
100 mlndan 300 mln gacha	-	5	2	1	-
300 mlndan yuqori	-	11	24	4	1

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion faoliyat umumiy ovqatlanish korxonalari samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsiyalarni joriy etish xizmatlar sifati, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi va korxonalarning moliyaviy natijalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Samarqand viloyatidagi 112 ta umumiy ovqatlanish korxonasi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, innovatsiyalarni joriy etish darajasi hududlar kesimida sezilarli farqlanishi aniqlandi. Shahar markazlarida joylashgan korxonalarning aksariyati innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etgan bo‘lsa, chekka hududlardagi korxonalarda innovatsion faollik darajasi ancha past ekanligi kuzatildi. Bu holat innovatsion infratuzilma, moliyaviy resurslar va malakali kadrlar bilan ta‘minlanganlik darajasidagi tafovutlar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va imtiyozli kreditlar hajmini kengaytirish;
- chekka hududlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan subsidiya va grant dasturlarini rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalar, elektron buyurtma tizimlari, mobil ilovalar va sun‘iy intellekt elementlaridan foydalanishni kengaytirish;
- korxonalarda innovatsion boshqaruv tizimini joriy etish hamda innovatsion faoliyat samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;
- oshpazlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning innovatsion kompetensiyalarini oshirish maqsadida muntazam malaka oshirish va sertifikatlash dasturlarini tashkil etish;
- innovatsion faoliyat natijalarini monitoring qilish va baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Umuman olganda, umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish xizmatlar sifati hamda korxonalar raqobatbardoshligini yuksaltirish bilan bir qatorda, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham salmoqli hissa qo‘shadi.

Н.Абдукадирова Современные подходы к комплексному экономическому анализу и оценке эффективности предприятий общественного питания	N.Abdukadirova Modern approaches to comprehensive economic analysis and evaluation of the efficiency of public catering enterprises
Аннотация. В статье рассматриваются современные подходы к комплексному экономическому анализу и оценке эффективности предприятий общественного питания. В результате исследования установлено, что внедрение инноваций способствует повышению рентабельности и конкурентоспособности предприятий. Разработаны практические предложения по повышению эффективности инновационной деятельности. Ключевые слова: предприятие общественного питания, сектор услуг, инновации, инновационная деятельность, инновационное управление, экономическая эффективность, качество обслуживания, оценка инноваций, конкурентоспособность, инновационная инфраструктура, экономический анализ.	Abstract: This article examines modern approaches to comprehensive economic analysis and the assessment of the efficiency of public catering enterprises. As a result of the study, it is established that the introduction of innovations serves to increase the profitability and competitiveness of enterprises. Practical proposals are developed to increase the efficiency of innovative activities. Keywords: public catering enterprise, service sector, innovation, innovative activities, innovative management, economic efficiency, service quality, innovation assessment, competitiveness, innovative infrastructure, economic analysis.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.